


01/1-02-05-38  
18.04.2022-y.



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi  
Idoraviy komissiyasining navbatdagi yig'ilish**

**BAYONI №6**

2022- yil 18- aprel

Samarqand shahri

**Raislik qiluvchi:** D. Musinov Boshqarma boshlig'i  
**Qatnashdilar:** Boshqarma boshlig'ining o'rinbosari,  
Komissiya a'zolari, boshqarma hamda  
shahar, tuman statistika bo'limlari  
xodimlari (ro'yxat bo'yicha)

**KUN TARTIBI**

**Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta'minlash maqsadida, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan "Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz" mavzusida yig'ilish tashkil etish to'g'risida.**

*(D.Musinov, A.Suyunov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, M.Tagayeva, D.Musinov)*

Kun tartibidagi masala yuzasidan boshqarma boshlig'i D. Musinov so'zga chiqib, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz" mavzusida hamda korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish yuzasidan axboroti eshitildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda Davlat statistika qo'mitasining 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi tizimda so'zsiz bajarilishi yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Chora-tadbirda belgilangan vazifa va topshiriqlarga tizim xodimlari tomonidan to'liq amal qilinishi, ularning so'zsiz ijrosini ta'minlash yuzasidan shaxsiy nazorat

olib borilishi, soha oldiga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni bajarishda har qanday ko‘rinishdagi mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilmaslik va korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha barcha xodimlar mas‘ul ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tilsin. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi Idoraviy komissiya a‘zolari tomonidan tizim xodimlari o‘rtasida muntazam ravishda tushuntirish ishlarini tashkil etish, barcha xodimlar tomonidan Davlat statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ovoro qilish, ularni asossiz Davlat statistika idoralariga taklif qilish, asossiz to‘lovlar undirish, o‘zaro munosabatlarda sansalorlik, ta‘magirlik, poraxo‘rlik va boshqa ko‘rinishdagi korrupsiya holatlariga qat‘iy chek qo‘yish bo‘yicha ogohlantirilsin.

Korrupsiyaning oldini olish, unga barham berishda faqat davlat va Hukumatning kuchi bilangina erishib bo‘lmasligini, shuning uchun mazkur ijtimoiy illatga qarshi butun jamiyat, barcha fuqarolar oyoqqa turmog‘i, kurashmog‘i zarurligini, har qanday jamiyat uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biri ekanligini, xususan Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarini samarali yechish ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi”-deb ta‘kidlanganliklarini ma‘lumot o‘rnida ta‘kidlab o‘tdi.

Ushbu illat inson huquqlarining buzilishi, mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga jiddiy ta‘sir etar ekan korrupsiyaga qarshi kurashish, bu illatni barcha soha va jabhalardan siqib chiqarish, yurtimizni korrupsiyadan holi hududga aylantirish birgina davlat idorasi yoki jamoat tashkilotining vazifasi emas, balki, shu Davlat fuqarosi, jamiyat a‘zolariga birdek tegishli bo‘lgan vazifa, mas‘uliyat hisoblanishini, shuning uchun barchamiz ushbu illatning avj olishiga, huquq va manfaatlarimizning buzilishiga yo‘l qo‘ymasligimiz lozimligini tushuntirib o‘tdi.

Kun tartibidagi yig‘ilish davomida davlat statistika organlarida mazkur yo‘nalishlarda ishlami yanada kuchaytirish, tizimli nazorat o‘rnatish va sud hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha tegishli vazifalar muhokama etildi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

### **QAROR QILADI:**

1. Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 29- dekabrda 127-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarma boshlig‘i D. Musinovning “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusida hamda korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**3. Axborot xizmati (F.Eshonkulov), Dasturiy texnik-ta‘minot va ma‘lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov):**

**“Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz”** mavzusida video rolik tayyorlash hamda boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

4. Agarda, mas’ul xodimlar tomonidan yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan holatlarga yo‘l qo‘ygan taqdirda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikga muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilsin.

5. Mazkur yig‘ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasi a’zolari zimmasiga yuklatilsin.

**Komissiya kotibi**



**X.Xolmo‘minov**